ERKIN VOHIDOV IJODIDA AN'ANA VA INDIVIDUAL MAHORAT MASALASI TAHLILI

Xamidov Azamat Tursun o'g'li
Shahrisabz davlat pedagogika instituti
magistranti
+99899 667 20 97
hamidovazamat14@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolamiz orqali biz, O'zbekiston xalq shoiri Erkin Vohidov ijodining badiiy-estetik qarashlarini, shuningdek, adabiy mahorat jihatlari tahlil va talqin qilamiz, Shoirning she'rlarida she'riy uslubning obraz yaratish mahoratining va so'z tanlashdagi nozik didi, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni uyg'unlashtirishdagi san'atkorona yondashuvi ilmiy asosda ko'rsatib berganini aytib o'tamiz. Ijodkorning badiiy mahorati o'zbek adabiyoti taraqqiyotidagi estetik tamoyillarni boyitishda muhim omil sifatida ishtirok etganini izohlaymiz.*

Kalit so'zlar: *ijodkor, muallif, ruhiy holat, ehtiros, talqin, adabiy mahorat, mushohada va ma'no, falasafiy umumlashma, poetik tahlil,*

Abstract: *Through this article, we analyze and interpret the artistic and aesthetic views of the work of the People's Poet of Uzbekistan Erkin Vohidov, as well as the aspects of literary skill. We will mention that the poet's poems demonstrate on a scientific basis the skill of creating images in the poetic style and the delicate taste in choosing words, the artistic approach to harmonizing national and universal values. We will explain that the creator's artistic skill played an important role in enriching the aesthetic principles in the development of Uzbek literature.*

Keywords: *creator, author, state of mind, passion, interpretation, literary skill, observation and meaning, philosophical generalization, poetic analysis,*

Аннотация: *В данной статье мы анализируем и интерпретируем художественно-эстетические взгляды на творчество Народного поэта Узбекистана Еркина Вохидова, а также аспекты литературного мастерства. Мы отметим, что стихи поэта на научной основе демонстрируют мастерство создания образов в поэтическом стиле и тонкий вкус в выборе слов, художественный подход к гармонизации национальных и универсальных ценностей. Мы объясним, что творческое мастерство сыграло важную роль в обогащении эстетических принципов в развитии узбекской литературы.*

Ключевые слова: *творец, автор, душевное состояние, страсть, интерпретация, литературное мастерство, наблюдение и смысл, философское обобщение, поэтический анализ,*

Qadim zamonlardan yigirmanchi asr boshlarigacha Turkiston qavmlari, urug’lar bir-biridan bo‘rklari, qalpoqlari bilan farq qilishgan. O‘zbekiston, Qozog‘iston va boshqa respublikalar tuzilgandan keyin bu saqlanib qoldi; bugunda ham Farg‘ona va eski Shosh-u Iloq – Toshkent vodiylari bilan Samarqand-u Buxoro tomonlarda kiyiladigan do‘ppilar farqlidir. Shularga suyanib, O‘zbekiston va o‘zbeklarning qadim Turkiston va Turonga bog‘liq tarixlarini, milliy qadriyatlarni she’rga solish “O‘zbegim”day obidani yaratish 1968-yilda faqat Erkin Vohidovga nasib etdi, deyish mumkin. Shu o‘rinda muallifning yetuk shoirligini, mahorat-u san’atini isbotlagan yana bir asari “Qo‘llar” qasidasiga to‘xtalish joiz.

Erkin Vohidov adabiy talqinida g‘oya, ohang va mushohada bog‘lami ifoda uslubi takomilini belgilaydi. Zamon muhrini inson qalbiga hamohang

suvratlashga moyil shoir nazdida go‘zallik ifodasi ruhiy holat tahlili, alalxusus, iztirob va shodlik yonma-yonligiga payvandlanadi, munosabat hamda qiymat uning ikki o‘q ildizini tashkil etadi. Hayrat tuyg‘usi va ehtiros yuksak pardasi musiqa hamda tasvir so‘zda uyg‘unlashuvini ta’minlaydi, binobarin, mushohada falsafiy teranligi umumlashmasi kayfiyat oniy lahzalarini markazlashtirishga xizmat qiladi. Ruhiy holat ziddiyatlarini jilolantirishda ijodkor mudomi ravshanlik va lo‘ndalik sari intiladi, ko‘lamdor fikr takomili hamda ohang o‘ynoqiligi beqarorligi matnda bir-birini aniqlovchi omillarga evriladi. Aynan ijodiy mustaqillashtirilgan ifoda uslubi ruhiy holat hamda poetik manzarani yaxlitlashtirishga zamin hozirlaydi. Mohiyatni tasvir asnosida ko‘rsatish, tahlillash va baholash mayli ijod falsafasini tavsiflaydi: Mirzo Bobur ohi falakka yetdi.Humoyun ko‘z ochdi.Soat-basoat - Hayotga qaytdiyu o‘g‘lon salomat,Otani xastalik to‘shakka eltdi. Bundan qirq yil oldin bu qasidani o’qigan she’rxon inson mehnati ulug’langan va odam, vatan, mehnat, hayotning bir butun ekanligini ta’kidlagan, tasvirlagan yuqoridagi shohona baytlardan ko‘ngli zavqlangani ma’lum. Mustaqillikdan keyin diniy bilimi ortayotgan kitobxon o‘qirkan, u dunyoda qo‘llaringiz qilgan amallaringizdan xabar bergay, kabi qutlug‘ so‘zlarni eslashi va bu qasida muallifiga yanada mehr-u hurmati ortishi tabiiydir. “Hayot deb yerdan uzsang ham, najot deb ko‘kka cho‘zsang ham”. “G’azal baxsh etgan olamga, ajal keltirgan odamga” kabi qo‘sh qofiyali satrlar esa shoirning san’ati, maqomi yuksakligini ko’rishimiz mumkin. Jahon da’vosini etgan, jahondin lek ochiq ketgan Skandar ilki beda’vo bu qo‘llardir, bu qo‘llardir, - baytida Navoiydan ta’sirlanib, navoiyona satrlar bitsa,

Diyorim bir sahiy soqiy,

Orol unga mayi boqiy,

Sir-u mavjli Amudaryo bu

qo’llardir, bu qo’llardir,

- deya Hofizning mashhur “Bideh soqiy mayi boqiy, ki dar jannatnaxohi yoft” satriga jo‘r bayt muallifining, bizningcha Navoiy va Lutfiylar ikki yig‘lagan ko‘zga o‘xshatgan Turkiston daryosini yangi zamonda yurtni obod qilishga kirishgan ikki buyuk qo‘lga qiyoslagan.

Erkin Vohidov ijodida Quyosh insonning homiysi, har qadamda insonga xizmat qiladi. Yana bu xizmatim insonga yoqdimikan deb xayol suradi. Yo‘qsa o‘rik shoxida bodroq qovurardimi? Majnuntolning yomg‘ir yuvgan sochlarini tararmidi? Iqtidorli shoir – Yaratganning millatga yuborgan sovg‘asi. Shuning uchun adiblar o‘zlari mansub millatga yashashni, poklikni, bir-biriga yaxshilik qilishni, Vatanni va xalqni sevishni o‘rgatadi. Shoirimiz: “Men ijodiy mehnatni faol jamoat ishlari bilan qo‘shib olib borishdek sharafli vazifa yukini doimo yelkamda his qilaman. Odamlarga faqat she’ring emas, o‘zing ham kerakligingni sezish – bu katta baxt”, - deb bejiz yozmagan. Shoir – millat ko‘zgusi. U – xalq qalbidagi alamlarni olamga shior qilib e’lon qiluvchi minbar.

Adabiy mushohadada shoir estetik tamoyillarini belgilaydigan xususiyatlar jilvalanadi. Lirika “Pushkin she’ridek tiniq, Lermontov misralaridek ravon bo‘lishi kerak”, - deb bilgan ijodkor uslubiy-shakliy izlanishlarida falsafaga yo‘g‘rilgan sodda sezim hamda ruhiy kechinma samimiyligi omuxtalashadi. Badiiy umumlashma teranligi vazn, janr va ifodaga yangilik kiritish mayli bilan o‘lchanadi. Mushohadani o‘zgartirishga xizmat qiladigan tasvir yo‘sinida o‘ziga xoslik va betakrorlik mavjud! Tasvir shiddati, ifoda jozibasi hamda talqin davomiyligini g‘alati tarzda uyg‘unlashtiradigan shoir hukm-xulosani yuksak ehtiros pardalarida hal qiladi. “Yo‘q, halovat istamayman, Orom bilmas yosh jonim, To‘lqin urgan ummoncha bor, Yurakdagi tug‘yonim” satrlari aslida Erkin Vohidov ifoda uslubi muayyan

qirralari, istiqbolga ishonch hamda ijodga e'tiqod bu solnoma qudratini belgilaydigan asosiy taomillar sanaladi.

Xulosa qilib shuni aytish joizki, mohiyatni tazodiy munosabatdan izlash va tuyg'u-ning ziddiyatidan teran falsafa singdirilgan badiiy umumlashma yaratish ijodkor lirikasi mag'zini tayin etadi, odamzod shuurini band etgan tuyg'uni tushunish va tushuntirishga intiladigan shoir ilg'ash mushkul ruhiy holatlar qa'riga kirib boradi, ijtimoiy tasvir obekti bilan ayovsiz bahsga kirishadi. Uzluksiz jarayonda ijodkor pozitsiyasi gavdalanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Baratov D., Astanaliev E. Functional Features of the Technical Documentation Control Program //International Journal on Orange Technologies. – 2021. – Т. 3. – №. 1. – С. 7-11.

2. Qobilbek, D. (2021). REFRIGERATOR IN MODERN HEATING POWER STATIONSTECHNICAL WATER WASTE THROUGH RECONSTRUCTION OF

3. Saloydinov, S. Q. (2021). Creation of feasibility studies to reduce energy costs in ginneries. "Экономика и социум", 9(88), 147-149.

4. Rasulov A. Badiiylik - bezavol yangilik. -T.: Sharq, 2007. - B. 45. 4. Vohidov E. Mening yulduzim. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. 2000. -B 6.

5. Yo'ldoshev Q. Yoniq so'z. - Toshkent: Yangi asr avlodi, 2006. -B. 63.